

## MUSIQA TA'LIMIDA INTERFAOL TA'LIMNING AFZALLIKLARI

**Jalolova Sojida**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

Musiq ta'limi va san'at magistratura mutaxassisligi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa madaniyati fani musiqiy faoliyatlarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish haqida fikr yuritiladi. Sinfda o'qitish jarayonlarida, interfaol ta'lim vositalarining afzalliklarini o'quvchining quyidagi fazilatlarida namoyon bo'ladi. O'zini-o'zi anglash, sog'lom munosabatlar, ishonch va his-tuyg'ularni boshqarish kabi ijtimoiy ko'nikmalar o'rnatilib, tushunchalar ma'nolarini bilish, muammolarni hal qilish kabilar shu jumladandir. Interfaol ta'lim xotirada saqlash va uni tiklashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun hatto sekin qabul qiluvchi o'quvchilar ham qiyin tushunchalarni tezda o'zlashtira oladilar.

**Kalit so'zlar:** Inerfaol ta'lim, musiqiy faoliyatlar, bilim, ko'nikma, o'zini-o'zi anglash, muloqot, o'zaro harakat, kognitiv janr, mahalliy uslublar, musiqa savodi, oddiy interval, tarkibli interval.

**Abstract:** This article discusses the use of interactive educational methods in musical activities of the science of music culture. In the process of teaching in the classroom, the advantages of interactive educational tools are manifested in the following qualities of the student. Social skills such as self-awareness, healthy relationships, confidence and managing emotions are established, including understanding the meanings of concepts and solving problems. Interactive learning has a significant impact on retention and retrieval, so even slow learners can quickly master difficult concepts.

**Keywords:** Interactive learning, musical activities, knowledge, skills, self-awareness, communication, interaction, cognitive, genre, local styles, music literacy, simple interval, content interval.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается использование интерактивных методов обучения в музыкальной деятельности науки музыкальной культуры. В процессе обучения в классе преимущества интерактивных средств обучения проявляются в следующих качествах ученика. Формируются социальные навыки, такие как самосознание, здоровые отношения, уверенность и управление эмоциями, включая понимание значения понятий и решение проблем. Интерактивное обучение оказывает значительное влияние на запоминание и извлечение информации, поэтому даже те, кто учится медленно, могут быстро освоить сложные концепции.

**Ключевые слова:** Интерактивное обучение, музыкальная деятельность, знания, умения, самосознание, общение, взаимодействие, познавательный, жанр, локальные стили, музыкальная грамотность, простой интервал, составной интервал.

## Kirish qismi

Yurtboshimizning 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va shu orqali xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida ta’lim-tarbiya tizmi haqida so‘z yuritib “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizmidan boshlanadi” degan konseptual g‘oyani ilgari surdilar.<sup>1</sup> Mazkur g‘oya asosida maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy harakatga aylandi, ta’lim-tarbiya tizmini tubdan isloh qilishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Bugun biz misli ko‘rilmagan islohotlar, har bir soha va tarmoqlarda yangilanishlar yuz berayotgan tarixiy bir davrda yashayapmiz. Davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri bu – har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishdir. Shunday ekan, barcha fanlar qatori musiqiy fanlarni o‘qitish ishini yanada yaxshilash, uning samaradorligini oshirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanmoq kerak.

## Asosiy qism

O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi

Ayni damda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda xususiy jihatdan qo‘llanilib kelmoqda. Interfaol ta’lim texnologiyalari ma’lum usullar va o‘qitish strategiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi, ularning har biri o‘quvchilarning kognitiv salohiyatini ochishga qaratilgan.

Bugungi kunda muloqotning dialogik va polilogik shakllariga asoslangan interfaol ta’lim keng tarqalgan. Interfaol ta’lim o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi. Bu sub’ekt-subyekt o‘zaro munosabatlar darajasida pedagogik ta’sirga imkon beradi, o‘quv jarayoni ishtirokchilarining bilim va ko‘nikma va malakalarni, umumiy holda kompetensiyalarini rivojlantiradi. Interfaol ta’limda ikkita pedagogik vazifa amalga oshiriladi: muloqotni tashkil etish (o‘zaro harakat) va birgalikdagi kognitiv faoliyat (o‘rganish) natijasiga erishish.

---

<sup>1</sup> Ta’lim sohasini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha parlament va deputatlar nazoratini amalga oshirishga doir chora tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi kengashining 708-IV-sonli qarori.

Musiqqa ta'limi faoliyatlari 5 turdan iborat: qo'shiq kuylash, bolalar cholg'ularida jo'r bo'lish, musiqqa savodi, musiqiy ritmik harakatlar, tinglash. Musiqqa savodi barcha faoliyatlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochilari va hokazo) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqqa savodi faqatgina musiqqa elementar nazariyasidan iborat bo'libgina qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqaviy bilim doirasini tarkib topdiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini ya'ni musiqqa shakllari, janrlari, xalq, bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqqa, nota savodi va boshqalarni singdirib borishdan iborat.

Interfaol ta'lim muhitining afzalliklari juda aniq va sodda. Yuqorida aytib o'tilganidek, interfaol ta'lim metodlari o'quvchidagi muayyan ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Misol uchun, interfaol o'yinlar o'quvchilar o'rtasida jamoaviy ish va muhokamani rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa munosabatlar ko'nikmalarini rivojlantirish, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish va hissiyotlarni boshqarishda katta yordam beradi. Interfaol ta'limning beshta asosiy afzalliklari:

- mas'uliyatli qarorlar qabul qilish;
- o'zini o'zi anglash;
- ijtimoiy xabardorlik;
- sog'lom munosabatlarni o'rnatish;
- hissiyotlarni boshqarish.

Aslini olganda, interfaol ta'lim o'quvchilarga baxtli va sog'lom hayot kechirishga yordam beradigan turli xil hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishning ideal usuli hisoblanadi.

Sinfda o'qitish jarayonlarida, interfaol ta'lim vositalarining afzalliklarini o'quvchining quyidagi fazilatlarida namoyon bo'ladi. O'zini-o'zi anglash, sog'lom munosabatlar, ishonch va his-tuyg'ularni boshqarish kabi ijtimoiy ko'nikmalar o'rnatilib, tushunchalar ma'nolarini bilish, muammolarni hal qilish kabilar shu jumladandir. Interfaol ta'lim xotirada saqlash va uni tiklashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun hatto sekin qabul qiluvchi o'quvchilar ham qiyin tushunchalarni tezda o'zlashtira oladilar.

Musiqqa savodiga oid interfaol metod:

### **“Yuk poyezdi” o'yini**

Bu o'yin yordamida o'quvchilarga oddiy va tarkibli intervallarning farqini tushunishni o'rgatish mumkin.

O'yin maqsadi: o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z-o'zini boshqarishga o'rgatadi.

O'yin jihozi: 2ta teplovoz va o'ndan ortiq vagonchalar (maketlari) bo'ladi.  
(vagonchalar o'lchami 6x12sm hajmida bo'lishi mumkin)

Vagonchalarga cho'ntakchalar yopishtirilsa, unda topshiriqlarni almashtirib turish imkoni bo'ladi va ulardan istagan sinfda, istagan mavzuni o'zlashtirishda foydalanish mumkin bo'ladi.

Masalan:

Vagonchalarga oddiy va tarkibli intervallar nomi yozilgan bo'ladi.

1. guruh "oddiy" intervallar nomi yozilgan poyezd vagonchalarni yig'ishi kerak;
2. guruh "tarkibli" intervallar nomi yozilgan poyezd vagonchalarni tizib chiqishi kerak bo'ladi.

Vagonchalar stol ustida aralashtirilib qo'yilgan. O'quvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan vagonchalarni ajratib, yuk poyezdini tezlik bilan jo'natadilar.

Vazifani tez va to'g'ri bajargan g'olib hisoblanadi.

### Xulosa

Interfaol ta'limdan foydalanib o'quv- tarbiya jarayonida avtoritar yondashuvni bartaraf etish, subyekt- subyekt munosabatlarini shakllantirish, oquvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirib ta'lim samaradorligini oshirishga erishishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 18.01.2021. «Ta'lim sohasini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlarni hayotga tatbiq etish bo'yicha parlament va deputatlar nazoratini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi kengashining 708-IV-sonli qarori.
2. Вахромеев В.А.- «Элементарная теория музыки», Москва, - 1961-год.
3. Кабалевский. «Как рассказывать детям о музыке», Москва, - Просвещение, 1987-год .
4. Мирошник И.М. Личность педагога как фактор развития эмоционально-образного восприятия музыки учащимися. Автореф... канд. психол. наук. - М., 1990.

### Foydalanilgan ilovalar:

- 1- <https://lex.uz/ru/docs/-5260694>
- 2- <https://kidswantfun.tistory.com/126>